

**TARJIMALARDA OLAMNING LISONIY MANZARASINI
IFODALASH USULLARI**

DILRABO TILAVOVA

O'qituvchi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya : *Har qanday til alohida olam manzarasiga ega va lisoniy shaxs ana shu manzaraga mos ravishda ifodalarning mazmunini tuzishga majburdir. Bunda tilda o'z aksini topgan insonning olamni o'ziga xos idroki namoyon bo'ladi. Til insonning olam haqidagi bilimlarining shakllanishi va mavjud bo'lishidagi muhim omildir. Inson faoliyat jarayonida obektiv dunyoni aks yettirar yekan dunyoni bilish natijalarini so'zda qayd yetadi.*

Kalit so'zlar: *tarjimalar, olam manzarasi, makon va zamon, muqobil tarjima, tushunish va bilish, muommolar.*

Abstract: *Any language has a separate world view, and the linguistic person is obliged to construct the content of expressions in accordance with this view. In this, a person's unique perception of the world, which is reflected in the language, is manifested. Language is an important factor in the formation and existence of human knowledge about the world. In the process of activity, a person records the results of knowledge of the world, which reflects the objective world, in words.*

Key words: *translations, world view, space and time, alternative translation, understanding and knowledge, problems.*

Kirish qismi: Badiiy asar tarjimalarida olamning lisoniy manzarasi borliq haqidagi obektiv bilimlarni to'liqligicha kitobxonga etkizib berish, lisoniy shakllarda tarjamalarda muhrlangan mazkur bilimlar majmuasi olamning lisoniy manzarasi, deb nomlanadi.

Olamning manzarasi (lisoniy ham) tushunchasi insonning olam haqidagi tasavvurlarini o'rganish asosida yaratiladi. Olam – o'zaro munosabatdagi inson va muhit bo'lsa, olam manzarasi – inson va muhit haqidagi ma'lumotni qayta ishlash

natijasidir. Agar olamning obrazi bo‘linmaydigan yaxlit butunlikni namoyon qilsa, olamning manzarasi dunyo haqidagi turli darajadagi bilimlar majmuyini va uning obektlariga bo‘lgan munosabatni namoyon qiladi. Olamning obrazini to‘g‘ridan-to‘g‘ri reflekslar vositasida anglab bo‘lmaydi, uni faqat o‘ziga xos obrazlarni “o‘z boshidan kechirish” orqaligina tushunish mumkin. Olam manzarasini “odatdagi” bilish orqali anglab bo‘lmasa-da, uni verbal va obrazli aks yettirish, ifodalash mumkin.

A.K.Kamenskiy olamning lisoniy manzarasini “ mantiqiy (konseptual) va lisoniy (so‘zli) modeldan tashkil topgan mantiqiy-so‘zli hosila” sifatida umumiy shaklda izohlagan.

M.Xaydeggerning qayd qilishicha, “manzara” so‘zi deganda birinchi navbatda, biron narsaning tasviri haqida o‘ylaymiz, “olam manzarasi dunyoning tasvirini yemas, balki olamni manzaradek tushunishni ifodalaydi”. Haqiqiy borliqni aks yettiruvchi olamning manzarasi va olamning lisoniy manzarasi o‘rtasida murakkab munosabatlar mavjud bo‘ladi. Olam manzarasi makon (yuqori-quyi, o‘ng-chap, sharq-g‘arb, uzoq-yaqin), zamon (kun-tun, qish-yoz), miqdor va h.k. o‘lchovlar vositasida tasavvur yetilishi mumkin. Uning shakllanishiga til, an’analar, tabiat va landshaft, ta’lim va tarbiya va boshqa ijtimoiy omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism: Olamning lisoniy manzarasi olamning maxsus manzaralari (kimyo, fizika va h.k.) bilan bir qatorda bo‘la olmaydi, u boshqa manzaralardan oldinda bo‘lib, ularni shakllantiradi. Chunki inson dunyoni va o‘zini umuminsoniy va milliy tajribaga asoslangan til vositasida angelaydi. Bu o‘rinda milliy tajriba tilning barcha darajadagi o‘ziga xos xususiyatlarni belgilaydi. Tilning o‘ziga xosligi tufayli til yegasining ongida muayyan olamning lisoniy manzarasi yuzaga keladi va inson u orqali dunyoni ko‘radi.

V.Fon Gumboldt “Tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning turlichaligi yemas, balki har bir millatdagi dunyoni ko‘rishning farqliligi natijasidir”, deb qayd qilgan. Chindan ham, har bir millatning o‘ziga xos ko‘rish tarzi bor, o‘ziga xos idrok intizomi bor, umumlashtirib aytganda, o‘ziga xos tafakkur tamoyili bor...

Amerikalik tilshunos Benjamin Li Uorf “Agar Nyuton inglizcha gapirmaganida, inglizcha o‘ylamaganida yedi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qadar boshqachroq bo‘lardi” degan. Har qanday til yegasi bo‘lgan inson uchun haqiqiy borliq (moddiy va fizik) quyidagi ko‘rinishlarda mavjud:

1. haqiqiy borliqning o‘zi;
2. birinchi signal (borliqni sezgilar vositasida idrok qilish) sistemasi;
3. ikkinchi signal (verbal) sistemasi.

Haqiqiy borliqni idrok qilishning bu uch darajasi bilan haqiqiy borliq haqidagi tasavvurlar: olam umumiy manzarasining tasavvuri (maishiy va ilmiy), olamning lisoniy manzarasi yordamida obektivlashtirilgan olamning subektiv tasavvuri o‘zaro munosabatda bo‘ladi.

Olamning lisoniy manzarasi insonni olamga (tabiatga, hayvonlarga, o‘z-o‘ziga) bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Har qanday tabiiy til dunyoni bilishning muayyan usulini aks yettiradi. Unda ifodalangan ma’nolar muayyan qarashlarning yagona tizimida, o‘ziga xos jamoaviy falsafada mujassamlashadi va u barcha til yegalari uchun majburiylik kasb yetadi. Mazkur tilda so‘zlashuvchilar dunyosi shakllanadi, ya’ni olamning lisoniy manzarasi leksika, frazeologiya va grammatikada muhrlangan olam haqidagi bilimlar majmuasidir.

Olam manzarasining konseptual va lisoniy turlarini farqlash lozim. Olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasidan farqli o‘laroq, bilish va ijtimoiy faoliyatlar natijalarini aks yettirib doimo o‘zgarishda bo‘ladi. Biroq olam lisoniy manzarasining ayrim qismlari insonlarning olam haqidagi qadimdan qolgan, yeskicha tasavvurlarini uzoq vaqt mobaynida saqlab qoladi. Olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasiga nisbatan boyroq bo‘ladi, chunonchi, uning shakllanishida tafakkurning har xil turlari ishtirok yetadi. Turli kishilarda, masalan, turli davrlar, turli ijtimoiy va yosh guruhlari, turli bilim sohalari va h.k.ning vakillarida olamning konseptual manzaralari farqlanishi mumkin. Har xil tillarda so‘zlashuvchi kishilar muayyan sharoitlarda bir-biriga yaqin bo‘lgan olamning konseptual manzaralariga, aksincha, bir tilda so‘zlashuvchi kishilar olamning turli konseptual manzaralariga yega bo‘lishlari

mumkin¹⁶. Olamning konseptual manzarasida umuminsoniy, milliy va shaxsiy o‘zaro munosabatlar bo‘ladi. Olamning konseptual manzarasi bilan olamning lisoniy manzarasi bir-biridan farq qilishiga qaramay, har ikkala manzara o‘zaro bog‘liqdir. Agar til olamning konseptual manzarasi bilan aloqada bo‘lmaganida, u muloqot vositasi rolini bajara olmasdi.

Olamning lisoniy manzarasini yaratishda frazeologizmlar alohida rol o‘ynaydi. Ular “xalq hayotining ko‘z gusi”dir. Frazeologik birliklarning tabiati til yegasining bilimlari, hayotiy tajribasi va mazkur tilda so‘zlashuvchi xalqning madaniy-tarixiy an‘analari bilan chambarchas bog‘liqdir. Frazeologik birliklarning semantikasi inson va uning faoliyatini tavsiflashga qaratiladi¹⁷.

Frazeologizmlar vositasida yaratilgan olamning lisoniy manzarasini tahlilida uning antroposentrik xususiyatini ta’kidlash joiz. Olamning antroposentrik manzarasi frazeologizmlar yo‘nalishining insonga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Bunda inson barcha narsalarning o‘lchovi sifatida ishtirok yetadi va tarjimalard berishda muqobilidan foydalanadi:

Asliyat	Muqobil tarjima
a lot – kill head;	ko‘p – boshini yeb;
full, whole - from head to toe;	to‘la, butun – boshdan oyoq;
small - invisible;	kichik –ko‘z ilg‘amas;
quickly - in the blink of an eye	tez – ko‘z ochib yumguncha

Olamning lisoniy manzarasi turfa ranglar, xususan, mifologemalar, obrazli metaforik so‘zlar, o‘xshatishlar, konnotativ so‘zlar, stereotiplar, ramzlar va h.k. vositasida yaratiladi. Har qanday til o‘zida mazkur til yegasining dunyoqarashini belgilaydigan va olam manzarasini shakllantiradigan milliy, o‘ziga xos xususiyatlar tizimini mujassamlashtiradi. Masalan:

inglizlarda cho‘chqa- pig a) ifloslik- dirty, b) nonko‘rlik- ingratitude, d) tarbiyasizlikni- uneducated;

inglizlarda pig ochofatni, o‘zbeklar, qirg‘izlar, qozoqlar va boshqa

musulmon xalqlarida choʻchqa sof diniy nuqtayi nazardan oʻta haqoratni ifodalaydi; vietnamlarda choʻchqa ahmoqlik ramzi boʻlib keladi. Demak, choʻchqa soʻzi turli xalqlarda turlicha belgilarni konnotasiyalaydi. Bu yesa mazkur xalqlar olam manzarasining shakllanishidagi ularning oʻziga xos, individual majoziy fikrlashini koʻrsatadi.

Xullas, har qanday madaniyat oʻzining kalit soʻzlariga yega boʻladi. Bu oʻrinda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tilimizning milliy-madaniy xususiyatlari haqida bildirgan quyidagi fikrlarini keltirish ayni muddaodir: “...tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur maʼno-mazmun bilan boyitadigan va toʻldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik gʻalati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning oʻzi mushkul bir muammo. Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir shunchaki oʻylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan soʻzlar yemas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida yel-yurtimizning dunyoqarashi, maʼnaviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ongu shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarining amaliy ifodasidir”¹⁸. Shunday qilib, olamning lisoniy manzarasini oʻrganish masalasi inson va uning turmushi, uning dunyo bilan oʻzaro munosabati, uning mavjudligining sharoitlarini aks yettiradigan olamning konseptual manzarasi masalasi bilan chambarchas bogʻliqdir. Olamning lisoniy manzarasi insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va umumiy olam manzarasini aks yettiradi.

Til va madaniyatning oʻzaro aloqasi mohiyatini anglab yetish uchun, «madaniyat» tushunchasini aniqlashtirib olish talab etiladi. “Madaniyat” tushunchasi fundamental, muhim terminologik jihatdan aniqlanmagan, keng, koʻp maʼnoli va shu kabi tushunchalar qatoriga kiradi. Antropologlar madaniyat tushunchasiga turli xil tarif berib kelganlar. Madaniyat bu muayyan kishilar guruhidan meros boʻlib oʻtuvchi, ularni aynan boshqa guruhdagi vakillardan farqlab turuvchi, muayyan artefaktlariga ega xulq modellarini oʻz ichiga oladi. Madaniyat shakllangan yoki meros oʻtgan xulq-atvor modellarini uygʻunlashtirish boʻlib, ular

insonlarning guruhlarini aniqlaydi, ularni boshqa guruh yoki millatdan farqlaydi va maxsus artefaktlarda o'z ifodasini topadi. Har bir madaniyatning majburiy tavsifi va uning ramziy xususiyati to'g'risida bahslashadilar.

Madaniyatning majburiy va simvolik xarakteri masalasi yuzasidan ham juda ko'p baxs munozaralar bo'lib turadi. Madaniyatshunoslar madaniyat tushunchasini ham ikki xil darajaga bo'lishadi:

1. Jamiyatning muayyan tarixiy taraqqiyoti, ijodiy imkoniyatlarning tarixiy rivojlanishi;

2. Muayyan davlat, xalq, millat, kishilar guruhi uchun xos bo'lgan hulq atvor, qadriyat, milliy an'analar jamlanmasi. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki, hech kimga tegishli bo'lmagan madaniyat ham mavjud emasligi aniq.

D. S. Lixachevning milliy yuksaklik va milliy tavsifni cheklash fikridan kelib chiqib, Yu. N. Karaulov milliy yuksaklik – bu madaniyat yuksakligi, madaniyatni esa hamisha milliy deb tariflaydi. Bu esa umuminsoniy madaniyat tushunchasi yo'q deyishga asos bo'lmaydi, lekin umuminsoniy madaniyatda milliylikka tegishli qirralar bo'lmaydi. Madaniyat ma'nosi inson tilining xulq-atvori, uning psixologiyasi (ruhiyati) garchi, tushunchada ko'p narsalar noma'lum va noaniq bo'lsada, to'g'ri tushunish maqsadida zamonaviy fan tomonidan boshqa muhokama etilmayapti.

Buning sababi obyektning xiraligi va uni tadqiq etish usullarining mukammal emasligi bilan izohlanadi. “Madaniyat” tushunchasiga aniq, o'tkir tarif berishning iloji yo'q. Juda ko'p tadqiqotchilar va ensiklopediyalarda keltirilgan ta'riflarni tahlil qilib, Yu. M. Lotman tomonidan keltirilgan ta'rif ma'qul ko'rildi: “Madaniyat bu umumiy avloddan avlodga o'tadigan ma'lumot, data uning tashkil qilinishi va saqlanishi usullari uning komponentlari hisoblanadi. Madaniyatni bilish esa shu madaniyat vakilining o'z madaniyattiga qanchalik yaqinligini ko'rsatadi. “Rus millatiga mansub kishining Lomonosov kimligini bilmagan yoki “Yevgeniy Onegin” kitobini o'qimaganda juda noqulay bo'lishi tayin. Bunday kishini yoki xorijlik yoki boshqa sayyoralik deb atash mumkin”.

Xuddi shunday qilib, Alisher Navoiyni tanimagan, “Do‘ppi tikdim” ni eshitmagan kishilarni ham o‘zbek deb atash mushkul masaladir.

K.Ajej ismli zamonaviy fransuz tadqiqotchisi ham madaniyatning ahamiyatini qisqa so‘z bilan tariflagan: «...tilning o‘limi madaniyatning inqirozidir. Inson o‘zini tutishi, ahloqini uning psixologiyasi, tilini har tomonlama hammaga tushunarli bo‘lishi fanga kiritilmagan omildir. Lekin bu masala yuzasidan ham ko‘p baxs munozaralar yuritiladi. Ma’lumki, «madaniyat» tushunchasining mazmuni aniqlanmagan. Madaniyat deb tabiatga kiritilmagan obyektlar, ya’ni binolar, qurilmalar, kiyimlar, ovqat tayyorlash usullari, ijtimoiy munosabat, verbal va noverbal muloqot, bolalar tarbiyasi, ta’lim, din, estetik afzal ko‘rish, falsafa va boshqalar. Juda ko‘p hollarda madaniyatning moddiy va ma’naviy, san’atga oid sinflarga ajratilishi ham ko‘p uchraydi. Madaniyatning moddiylik va ma’naviy qadriyatlarga bo‘linishini olimlar ilmiy abstraksiya deb baholab, madaniyatning yaxlitligi haqida xulosa qabul qilishdi. Unda har bir moddiylik yaratilishidan oldin inson ongida g‘oya sifatida shakllangan bo‘lishi kerak.

Shu bilan bog‘liq ravishda ham madaniyatning komponentlarini aniqlashning iloji yo‘q. Shuningdek, “madaniyat” deganda “voqyea va xodisalar, alomat, belgi va predmetlarning keng doirasi” tushunilishi haqida ham fikr yo‘q emas. Misol uchun, “madaniyat” rubrikasiyasiga quyidagilarni: Neksiya, Sirdaryo, Qimmat; so‘m, tiyin, O‘zbekiston Respublikasi; jadidlar harakati; mastava, manti, osh; O‘zbekiston havo yo‘llari, O‘zbekiston Milliy universiteti; Do‘ppisini osmonga otmoq; va hk.larni ham kiritish mumkin, chunki qayd etilganlar bevosita milliy madaniyatga taaluqli. Lingvistik nuqtai nazardan ham baholaganda bu kabi elementlarning xususiyatlari o‘ziga xos:

1. Bu kabi so‘zlar va ularning referentlari ekvivalentsiz birliklardir;
2. Ular konnotasion so‘zlar va frazeologizmlardan tashkil topishi mumkin.

Madaniyatning o‘rganish qiyinchiliklari ayniqsa xududiy va boshqa sabablarga ko‘ra qiyinchilik tug‘diradi, chunki tadqiqotchi boshqa madaniyat vakili bo‘lishi

ham mumkin. Misol uchun, Toshkentlik kishi Xorazm madaniyatini o'rganish uchun u haqida kitob o'qishning o'zi yetarli emas, u muxitida bo'lish, yashash ham bunda muhim o'rin tutadi. Bu esa o'z o'rnida bir guruh madaniyatining shu guruh vakili tomonidan o'rganilishi oson degan fikrni ham tasdiqlashga imkon bermaydi. Chunki o'z madaniyatining ham o'ziga xos xususiyatlarini tashqi kuzatuvchi sifatida yoritish uchun mahorat talab qilinadi. Boshqa madaniyatni o'rganishda esa o'z milliy madaniyatini solishtirish manbai bo'lib xizmat qilishi ham samara bermaydi. Bizning madaniyatimiz tilimizda aks etgan bo'lsa ham o'z madaniyatimizni ham o'rganish va baholash yetarlicha qiyin. Madaniyatda qabul qilish omillari aniq: A)dolzarb; B)muhim

Turli madaniyat guruhlarida aynan bir tushunchaning qatlamlarida turli fikrlar jamlanadi. Misol uchun, xitoyliklar uchun oila "baxt va garmoniya" ramzi bo'lsa, pul esa "muhim, ko'p, oz, yaxshi va qimmatbaho" deb baholanadi. O'zbek madaniyati vakillari uchun esa oila muqaddas, sajdagohga tenglangan, pul esa qo'lning kiri deb baholanadi.

A.A.Brudniyning fikricha, bir birini tushunish, madaniyat va til uyg'unligi asosida kechadi, til va madaniyat insonlar bir birilarini tushunishlari uchun tayanch omil hisoblanadi. Darhaqiqat, tushunish hech qanday tahlilsiz, solishtirishsiz, boricha qabul qilish bo'lsa, bilish va o'rganish solishtirish va tahlil asosida bosqichma bosqich bilimlarni egallashni anglatadi. Til va madaniyat uyg'unligi ham aynan madaniyat vakillarining madaniyatni bilishi, tushunishi va o'rganishida ham qisman aks etadi. Tushunish jarayoni ham ko'p qirrali.

V. V. Znakov o'zining monografiyasida uni ikki xil turga tasniflaydi: 1.Ongli ravishda (Gnoseologik) 2.Tarixiy-madaniy (Germenevtik). Tushunishga odatda avvaldan mavjud tajriba asosida bilim va ko'nikmalar natijasida erishiladi. Tushunish doirasining predmeti nafaqat ko'nikma hosil qilingan ma'lumot, balki ong uchun yangilik bo'lgan ma'lumot ham bo'la oladi. Kognitiv psixologiyada tushunish qabul qilingan ma'lumot va avvaldan mavjud bilimlar sifatida tushuniladi.

Lekin oxirgi tadqiqotlar bilishning tushunish bilan mutanosiblikda

deb qabul qilish haqidagi fikrlarni inkor etib keldi, sababi tushunish bilishsiz, bilish esa tushunishsiz ham mavjud bo'lishi mumkin.

M. K. Mamardashvili va A. M. Pyatigorskiy, tushunish(to understand) va bilishning(to know) ikki xil masalaligi muammosi yuzasidan munozara yuritib, o'rta madaniyatli odamning tushunish vaziyatiga kirish uchun avvalgi ko'nikmali vaziyatlarni yangilari bilan almashtirishiga to'g'ri keladi, bu esa ong va tajribani kengaytirishning eng ommabop ko'nikma shakllaridan biridir.

Xulosa qismi: Madaniyat va til ma'lumotning yetkazilishini ta'minlovchi kommunikativ funksiyani bajaradi. Kommunikativ funksiyaga urg'u bergan holda dialogda qatnashayotgan shaxsning pozitsiyasini ma'lumot uzatuvchi deb baholanadi. Ma'lumotni tushunarli yetkazish uchun tinglovchi hamrohning qaysi ijtimoiy va madaniy guruhga mansub ekanligi, kanday qadriyatlar asosida tarbiyalanganligini bilish ham juda katta ahamiyatga ega.

Xuddi shu omillarni hisobga olib, tinglovchi ham so'zlovchi to'g'ri tushunishga harakat qilmasa, muloqot maqsadli ravishda samarali kechmasligi aniq. Xullas, turli madaniyatlar o'rtasidagi farqlarga misol keltiriladigan bo'lsa, ro'yxat cheksiz bo'lishi aniq. Hayotning turli jabhalari turlicha qadriyat sifatida baholanadi. Taomlar ham hamma yerda turlicha tayyorlanadi va hk. Aynan shu sababli ham insonlar butun dunyoda bir birlarini tushunishlari uchun tilni bilishning o'zi yetarli emas, bir birining madaniyatini ham o'rganish kerak.

Adabiyotlar ro'yhati

- 1.Xayrulla Hamidov, & Arzu Karausta. (2023). TURKCHAGA ARAB TILIDAN O'ZLASHGAN JURNALISTIKAGA OID TERMINLAR XUSUSIDA. *Konferensiyalar | Conferences*, 1(1), 28–33. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1130>
- 2.Hamidov, Xayrulla, Tojiyeva, Afro'Za UMAR SAYFIDDIN HIKOYALARI TARJIMALARIGA DOIR // ORIENSS. 2022. №Special Issue 28. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/umar-sayfiddin-hikoyalari-tarjimalariga-doir>

3. Xayrulla Hamidov. Turk tili frazeologiyasi va o'zbekcha-turkcha tarjima masalalari. (Monografiya). 2024/1. Tom 1. Bet 232.
4. Baxtiyorovna S. S. O'zbek tilining intensiv kursi (xorijliklar uchun o'zbek tili. Boshlang'ich kurs). – 2021.
5. ABDULLAYEVA, MARHABO RAXMONKULOVA. "DUNYO TILSHUNOSLIGIDA "O „QUV LUG „ATI" TERMININING PAYDO BO „LISHI TAXLILI.“" *Language teaching: new approaches and innovations* mavzusida ilmiy-amaliy online konferensiya. TDSHU 5 (2022): 50-53.
6. Hamidov, X. , & Karausta, A. (2023). TURKCHA JURNALISTIKA TERMINLARI TARKIBIDAGI G'ARB TILLARIDAN O'ZLASHGAN AFFIKSLARGA DOIR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (23), 395-401.
7. Комилова, Дилдора Шавкатовна . "БАДИЙ ТАРЖИМАДА ҲИССИЙ БАҲОЛАШ ЛЕКСИКАСИНИНГ БЕРИЛИШИ (ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА)" *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, vol. 2, no. 10-2, 2022, pp. 848-851.
8. Shavkatovna, Komilova Dildora. "Nationality of General Human Feelings in Translations." *Journal of Intellectual Property and Human Rights* 2.2 (2023): 63-67.
9. Hamidov, Xayrulla, and Marxabo Abdullayeva. "Alternative Versions and Functional Characteristics of Phraseologists in Uzbek." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 4.3 (2024): 51-54.